# "Polimerlar fanining zamonaviy muammolari" O‘zbek-Qozoq Simpoziumi o‘tkazildi

O’zbekiston Republikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti hamda Qozog’iston Respublikasi Milliy Fanlar akademiyasi Polimer materiallari instituti hamkorlikda "Polimerlar fanining zamonaviy muammolari" O’zbekiston- Qozog’iston onlayn Simpoziumi o’tkazildi.

Ushbu ilmiy simpoziumda polimerlar sohasidagi akademiklar, yetakchi olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Simpozium ishida O'zbekistonda polimer sanoatining rivojlanishi, polimerlar sintezi va xususiyatlari, kompozit polimer materialshunoslik sohasida ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, metall polimerlarning hozirgi holati va istiqbollari, ushbu sohada yangi innovatsion yondashuvlarni qo’llash kabi masalalar muhokama qilindi va o’zaro fikr almashildi.

Simpozium ilm-fan, ta’lim yo’nalishida va tadkikot natijalarini tijoratlashtirish sohasida ikki qardosh davlat olimlarining yanada yaqin hamda o’zaro manfaatli va samarali hamkorligini ta’minlash bo’yicha tizimli yondashuvlarni shakllantirishga imkon beradi.